

SO'NGGI PUSHAYMONNING NAFI YO'Q.



SO'NGGI PUSHAYMONNING NAFI YO'Q.

Xalqimizda “Ko’za kunda emas, kunida sinadi”, degan naql bor. Bu naql o’zboshimchalik bilan oqibati xayrli tugamaydigan ishga kirishayotganlarga qarata aytiladi. Bu ko’p asrlar sinovidan o’tgan tajriba asosida yuzaga kelgan xulosadir. Beparvo, o’zboshimcha, qoidabuzar kishilar esa doimo jabr tortib, qilmishidan pushaymon bo’lishgan. So’nggi pushaymonning esa aslo foydasi bo’lmaydi. Yaqinda xuddi ana shunday voqea tog’li Xo’jaipok qishlog’ida yashovchi Soli Fayzullaevning (ism-shariflar o’zgartirilgan) ham boshiga tushdi. U bir tanishidan hujjatsiz traktor sotib oladi. Uni haydashni naridan beri o’rganib olib, hujjatsiz traktorni boshqaruv hujjatsiz qishlog’ida haydab yuraveradi. Yana buning ustiga, traktorda odam tashish qat’iyan taqiqlanganiga qaramasdan, tog’ning tik nishabli yo’llarida traktor telejkasida bemalol odam tashishga jur’at qiladi. Kunlardan bir kuni uning bu beparvoligi qimmatga tushdi. 2022 yil 16 fevral kuni S.Fayzullaev traktor boshqaruv rulida biroz nosozlik borligini sezgan bo’lsa-da, texnik nosozlikka parvo qilmay o’zining mahoratiga ishonib, tog’ning baland qismidan pastga tezlik bilan tushib kelayotganda traktor boshqaruvini yo’qotdi. “T-16” markali

traktorda 9 nafar yo'lovchi bor edi. Hujjatsiz traktorining buzuq traktori yo'l chetiga ag'anadi. Traktor telejkasidagi odamlar ancha jabr ko'rdi va hatto ulardan birovi kasalxonaga yetkazib borilganligiga qaramasdan og'ir jarohat olganligi tufayli hayotdan ko'z yumdi.

Mana sizga qonunni buzib ish tutishning bir misoli. Odil sud sudlanuvchiga aybiga yarasha jazo tayinladi.

Noxush xodisadan so'ng ko'zi charaqlab ochilgan ayblanuvchi o'z aybini tan olib, kechirim so'radi, qilgan ishiga ming bora pushaymon ekanligini bildirdi. Ammo so'nggi pushaymonning foydasi kimga tegibdiki, unga naf keltirsa.

Shunday ekan, azizlar, har ishda va hamma vaqt qonun va qoidalarga rioya qilaylik. Qoidaga amal qilgan, qoida talablarini bajargan inson aslo pushaymon chekmaydi.

Surxondaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hayati sudyasi
S.Suvonqulov